
"BO'STON" MAHALLASINING ELEKTR TA'MINOTI YAXSHILANMOQDA

Farg'ona shahrining "Bo'ston" mahalla fuqarolar yig'inida loyiha asosida past kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlarini yangilash hamda modernizasiya qilish ishlari davom etmoqda. Loyiha asosida hududda 282 dona yangi temir-beton tayanchlarini o'rnatish, 7,1 km uzunlikdagi 0,4 kVli yangi elektr uzatish kabel tarmog'ini tortish hamda 4 dona transformator punktini quvvatini katta quvvatlisiga almashtirish, yangilash ishlari rejalashtirilgan.

Ayni vaqtda, hududga yetkazilgan yangi temir-beton tayanchlarini o'rnatish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Loyiha yakuni bilan, mahalladagi 600 dan ortiq xonadonning elektr ta'minoti yaxshilanadi.

Hududlarda bu kabi amaliy ishlar davom etmoqda.

2023-08-16 10:12:53